TURISTIK XIZMAT BOZORINING MOHIYATI, UNING VAZIFALARI VA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	821
Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna	
CHIGITLI PAXTA TARKIBIDAN YOT ARALASHMALARNI AJRATISH UCHUN QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR.....	825
Bozorov Dilmurod Bahromjon o'g'li, Jakparov Oltinboy Rustamjon o'g'li	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND GREEN INITIATIVES: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN	830
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
SOLIQ INSTRUMENTLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	834
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li, Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHI KONSENTRATSIYASINING HUDUDIY TAHLILI: VILOYATLAR VA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA HERFINDAHL-HIRSCHMAN INDEKSI	839
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	



CHARM-POYABZAL SANOATI TARMOG'INING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA.....	847
Azimova Feruza Payziyevna, O. Maxmudov	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA RESURS EHTIYOJLARI.....	852
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	858
Xo'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KREDITLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	864
Tajimuratova Nelufar Vays qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich	
BAHOLANGAN RISKLARGA NISBATAN AUDITORNING HATTI-HARAKATLARI	876
A.Z.Avlokulov	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA OCHIB BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH	880
Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	885
Мухторов М. Н., Каримова А. М.	
FIZIK XAVFSIZLIK NAZORATI VA UNI ISPY DASTURI ASOSIDA MONITORING QILISH.....	892
Usmanbayev Doniyorbek Shuxratovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI	902
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
KALSIYLANGAN SODA ISHLAB CHIQRISHDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNI METROLOGIK TA'MINLASHNING AHAMIYATI	910
Ametova Biybisuliu Xamidullaevna, Ametov Quanishbay Xamidullaevich	
ЛЬГОТЫ ПО ПРЯМЫМ И КОСВЕННЫМ НАЛОГАМ И ИХ ГАРМОНИЧНОЕ СООТНОШЕНИЕ	915
Фаттоев Олимжон Гайрат ўғли	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	920
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	925
Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi	
IQTISODIY TIZIMDA RISK VA UNING XUSUSIYATLARI TAHLILI.....	929
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	937
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li	
SOLIQ NAZORATINING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	945
Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li	
FISKAL MEKANIZMLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETISH XUSUSIYATLARI.....	950
Ne'matov Ne'matulla Erkinboyevich	
ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	955
Воронин Сергей Анатольевич, Ахмедова Фазилат Жураевна	
IMPROVING EMPLOYEE MOTIVATION AND DEVELOPING AN EFFECTIVE INCENTIVE SYSTEM IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT.....	962
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor ugli, Ashurova Jasmina Jo'ra kizi	



O'ZBEKISTONDA KO'P POG'ONALI PENSIYA TIZIMIGA O'TISHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA
MOLIYAVIY BARQARORLIK MODELLARI 966
Mamatqulova Yayra Dilmurod qizi

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

O‘ZBEKISTONDA KO‘P POG‘ONALI PENSIYA TIZIMIGA O‘TISHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA MOLIYAVIY BARQARORLIK MODELLARI

Mamatqulova Yayra Dilmurod qizi

Guliston davlat universiteti

“Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrası,
iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ko‘p pog‘onali pensiya tizimiga o‘tish jarayoni ekonometrik modellar asosida tahlil qilinib, uning moliyaviy barqarorlikka ta‘siri baholangan. Tadqiqotda OLG (Overlapping Generations) modeli hamda VAR (Vector Autoregression) usullaridan foydalanilib, pensiya tizimini isloh qilishning uzoq muddatli iqtisodiy samaralari va moliyaviy xavflari o‘rganilgan. Shuningdek, demografik o‘zgarishlar, pensiya xarajatlari dinamikasi hamda ijtimoiy himoya tizimining barqarorligini ta‘minlash bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘p pog‘onali pensiya tizimi, ekonometrik tahlil, moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy himoya, pensiya islohoti, VAR modeli, OLG modeli, demografik omillar.

Abstract: This article analyzes the process of transition to a multi-pillar pension system in Uzbekistan based on econometric models and evaluates its impact on financial sustainability. The study applies the OLG (Overlapping Generations) model and VAR (Vector Autoregression) methods to examine the long-term economic effects and financial risks of pension system reforms. In addition, demographic changes, the dynamics of pension expenditures, and issues related to ensuring the sustainability of the social protection system are analyzed, and scientific and practical recommendations are proposed to address these challenges.

Keywords: multi-pillar pension system, econometric analysis, financial sustainability, social protection, pension reform, VAR model, OLG model, demographic factors.

Аннотация: В данной статье процесс перехода Узбекистана к многоуровневой пенсионной системе проанализирован на основе эконометрических моделей и дана оценка его влияния на финансовую устойчивость. В исследовании с использованием модели OLG (Overlapping Generations) и метода VAR (Vector Autoregression) изучены долгосрочные экономические эффекты и финансовые риски реформирования пенсионной системы. Также проанализированы демографические изменения, динамика пенсионных расходов и проблемы обеспечения устойчивости системы социальной защиты, а также разработаны научно-практические рекомендации по их решению.

Ключевые слова: многоуровневая пенсионная система, эконометрический анализ, финансовая устойчивость, социальная защита, пенсионная реформа, модель VAR, модель OLG, демографические факторы.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimi hozirgi kunda asosan joriy to‘lov (pay-as-you-go, PAYG) tamoyiliga asoslangan bo‘lib, bu tizim demografik o‘zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish sur‘atlari va inflyatsiya bosimi ostida moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Aholining qarishi, tug‘ilish darajasining pasayishi va mehnat bozorida norasmiy bandlikning yuqori darajada bo‘lishi pensiya byudjetiga katta yuklama yaratmoqda. Shu sababli ko‘p pog‘onali pensiya tizimiga (World Bank modeli bo‘yicha: davlat pensiyasi, majburiy jamg‘arma, ixtiyoriy jamg‘armalar va ijtimoiy yordam) o‘tish ushbu muammolarni hal etishning samarali yo‘li sifatida ko‘rilmog‘da.

Pensiya tizimi to‘g‘risida yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlarni eslamaslikning iloji yo‘q, albatta. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 2-iyundagi PF–91-sonli¹ “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi farmonga ko‘ra:


1 <https://www.lex.uz/uz/docs/-7553322>



“Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lamini kengaytirish, fuqarolarning daromadlarini izchil oshirib borish siyosatini davom ettirish hamda ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish maqsadida qaror imzolandi. Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish maqsadida 2025-yil 1-iyuldan boshlab pensiyalar va nafaqalar, shuningdek, kam ta‘minlangan oilalarga bolalar nafaqalari hamda moddiy yordam to‘lovlari miqdorlari 10 foizga oshirilishi belgilandi. 2025-yil 1-avgustdan boshlab budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va stipendiyalar miqdori 10 foizga oshirildi. Budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqlari, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdori oshirilishi bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplasin”, deyilgani ham yurtimizda yoshlar va nafaqaxo‘rlarga nisbatan bildirilayotgan e‘tibordan dalolat beradi.

Hukumat rejalariga ko‘ra, ish haqi, pensiya va nafaqalar har yili oshirib borilishi ta‘kidlandi va bu oshirish darajasi inflyatsiyadan yuqori bo‘lishi belgilangan. 2026-yil uchun katta mablag‘ (trillionlab so‘m) ajratilishi rejalashtirilgan. Pensiya tizimining to‘g‘ri tashkil etilishi moliyaviy barqarorlikka erishishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘p pog‘onali pensiya tizimi — bu aholining keksalik davrida daromadini barqaror ta‘minlashga qaratilgan zamonaviy tizim bo‘lib, u bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta pog‘onalardan iborat. Har bir pog‘onaning vazifasi va moliyalashtirish manbai turlicha bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Ko‘p pog‘onali pensiya tizimi pog‘onalari

0-pog‘ona: ijtimoiy yordam (Social assistance)- pensiya olish huquqiga ega bo‘lmagan yoki daromadi juda past bo‘lgan shaxslarni minimal darajada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan va davlat budjetidan moliyalashtiriladi, yordam puli shaklida beriladi hamda kambag‘allikni oldini olish uchun olib boriladi. 1-pog‘ona: davlatning minimal pensiyasi (Pay-as-you-go / non-funded)- mehnat qilgan shaxsni keksligida minimal barqaror daromad bilan ta‘minlashga qaratilgan va ish staji hamda ish haqi bilan bog‘liq bo‘ladi. 2-pog‘ona: majburiy individual jamg‘armalar (Funded)- shaxsiy hisobda jamg‘arilgan mablag‘lar orqali kelajakdagi pensiyani oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir shaxs nomiga individual hisob yaratiladi va pensiya miqdori shu jamg‘arma hajmiga bog‘liq bo‘ladi. 3-pog‘ona: ixtiyoriy xususiy jamg‘armalar (Voluntary private pension) - pensiya yoshida yuqori turmush darajasini ta‘minlash uchun xususiy pensiya jamg‘armalari yoki sug‘urta kompaniyalari orqali yuritiladi va to‘liq ixtiyoriy shaklda bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko‘p pog‘onali pensiya tizimi va uning moliyaviy barqarorlikka ta‘siri masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, Jahon banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p pog‘onali pensiya modeli pensiya tizimini isloh qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu modelda davlat pensiyasi, majburiy jamg‘arma, ixtiyoriy pensiya jamg‘armalari va ijtimoiy yordam mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi asosiy e‘tiborga olinadi.

Xorijiy olimlardan N. Barr pensiya tizimining iqtisodiy mohiyati, davlat kafolatlari va ijtimoiy himoya funksiyalarini chuqur tahlil qilgan. P. Diamond esa pensiya islohotlarining mehnat bozori, jamg‘arma va avlodlararo taqsimotga ta‘sirini o‘rgangan. Shuningdek, A. Holzmanna, J. Stiglitz va E. Palmer kabi tadqiqotchilar pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi, demografik omillar va institutsional islohotlar masalalariga alohida e‘tibor qaratganlar.

Mahalliy olimlar tomonidan ham O‘zbekiston pensiya tizimini takomillashtirish, pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta‘minlash, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalalari tadqiq etilgan. Jumladan, pensiya tizimining amaldagi holati, budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faoliyati, pensiya ta‘minotining moliyaviy manbalari hamda ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mavjud adabiyotlarda asosan pensiya tizimining huquqiy, ijtimoiy va moliyaviy jihatlarini yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda ko'p pog'onali pensiya tizimiga o'tish jarayonini ekonometrik modellar asosida baholash masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, OLG va VAR modellari yordamida pensiya xarajatlari, inflyatsiya, ish haqi dinamikasi, demografik o'zgarishlar va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash mazkur tadqiqotning o'ziga xos jihati hisoblanadi.

Shu sababli ushbu maqolada mavjud ilmiy ishlardan farqli ravishda ko'p pog'onali pensiya tizimiga o'tishning nafaqat nazariy asoslari, balki uning uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka ta'siri ekonometrik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Bu esa O'zbekiston pensiya tizimini isloh qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekistonda ko'p pog'onali pensiya tizimiga o'tish jarayonining iqtisodiy va moliyaviy jihatlarini baholashda ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda tizimli yondashuv usullari qo'llanildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston pensiya tizimi Jahon bankining ko'p pog'onali pensiya modeli asosida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Ushbu usul orqali turli mamlakatlarda pensiya tizimining moliyaviy barqarorlikka ta'siri, demografik omillar va jamg'arma mexanizmlarining samaradorligi o'rganildi. Natijada O'zbekiston uchun mos bo'lgan institutsional yondashuvlar va amaliy mexanizmlar aniqlashtirildi.

Statistik tahlil usuli asosida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Davlat statistika qo'mitasi hamda Jahon banki ma'lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida aholi sonining o'sishi, qarilik koeffitsiyenti, pensiya xarajatlari, ish haqi dinamikasi va inflyatsiya ko'rsatkichlari o'rganildi.

Ekonometrik tahlilda OLG (Overlapping Generations) modeli va VAR (Vector Autoregression) modelidan foydalanildi. OLG modeli orqali avlodlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, pensiya tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi hamda jamg'arma mexanizmlarining iqtisodiyotga ta'siri baholandi. VAR modeli yordamida esa inflyatsiya, ish haqi, pensiya xarajatlari va davlat budjeti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinib, pensiya tizimidagi o'zgarishlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri aniqlashtirildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida pensiya tizimining barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq mexanizm sifatida o'rganilib, davlat pensiyasi, majburiy jamg'arma va ixtiyoriy pensiya jamg'armalari o'rtasidagi mutanosiblik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda ko'p pog'onali pensiya tizimini joriy etishning moliyaviy barqarorlikka ta'siri yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tgan yillar mobaynida Strategik islohotlar agentligi bo'lmish "Allianz Pension Ranking 2023" pensiya reytingi natijalari asosida O'zbekistonda pensiya tizimini yaxshilash imkoniyatlarini tahlil qildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mazkur pensiya reytingida 4,5 ballik shkala bilan 75 ta mamlakat ichida 71-o'rinni egalladi. Reytingda asosan 3 ta subindeks — bazaviy sharoitlar, barqarorlik va pensiya tizimiga monandlik 1 dan 7 gacha bo'lgan shkala asosida baholangan.

Daniya va Niderlandiya bu kabi reytinglarda eng yuqori o'rinlarda turadi, chunki ularning pensiya tizimlari kuchli jamg'arma komponentiga asoslangan. Masalan, Niderlandiyada budget hisobidan moliyalashtiriladigan bazaviy belgilangan stavkali davlat pensiyasi mavjud. Germaniyada pensiya tizimi uchun umumiy badal stavkasi 18,6 % ni, qamrov darajasi esa 82 % ni tashkil qiladi.

Ushbu tizimda ikki asosiy model qo'llaniladi:

a. **Overlapping Generations (OLG) modeli** — uzoq muddatli dinamik ta'sirlarni, muvozanat va mukofot-moliyalashtirish munosabatlarini o'rganish uchun;

b. **VAR modeli** — vaqt qatorlari o'zaro bog'liqligini, impuls-rezpons (IRF) va prognoz xatosi dispersiyasini dekompozitsiya qilish (FEVD) orqali qisqa va o'rta muddatli shok ta'sirlarini baholash uchun.

Yuqoridagi modellar asosida yaqin kelajakda, ya'ni 2040-yilda barqarorlik darajasi hisoblanganda 0,92 ga teng bo'lishi kutilmoqda (1-jadval).



1-jadval. Simulyatsiya natijalari (OLG modeli asosida).

Ssenariy	Pensiya xarajatlari/YaIM (2040)	Barqarorlik indeksi (Solvency ratio)
PAYG (hozirgi)	10,2%	0,62
Multi-pillar (2-pog'ona 10% qamrov)	6,8%	0,81
Multi-pillar (to'liq, 50% qamrov)	5,5%	0,92

O'zbekistonda pensiya badallari darajasi (12–25 %) boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi. Biroq haligacha uning tarkibidagi to'lovlarining yalpi koeffitsienti (55 %) o'rtacha bo'lib kelmoqda. Mazkur ko'rsatkich orqali ishchining o'rtacha ish haqiga nisbatan olinadigan o'rtacha pensiya aniqlanadi. Bu nomuvofiqlik esa fuqaro pensiya badallaridan ko'p mablag' olmayotgani va pensiyalar juda past ekanligini bildiradi. Biroq mamlakatimizda norasmiy bandlik yuqori bo'lgani sababli pensiya ta'minoti tizimining qamrov darajasi past — 38 % ni tashkil etadi. Shuningdek, pensiya mexanizmlari sifatida foydalanish mumkin bo'lgan rasmiy moliyaviy xizmatlarning ommabopligi ham past.

O'zbekistonda pensiya tizimi majburiy badallar bo'yicha belgilangan to'lov tizimlariga kiritilgan bo'lib, yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra borgan sari davlat budjetidan ko'proq moliyalashtirilmoqda. So'nggi 10 yillik statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, pensiya jamg'armasi daromadlari 3,4 baravarga, xarajatlari esa 5 baravarga oshgan. 2020-yildan boshlab pensiya to'lovlarini moliyalashtirishga budjetdan doimiy ravishda transfert ajratib kelinmoqda. 2022-yilda uning miqdori 11 trln so'mni (jami xarajatning 24,7 %) tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga borib transfert miqdori 38 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. O'zbekistonning hozirgi PAYG tizimida pensiya xarajatlari YAImning 7–8 % ini tashkil etadi (2023-yil). BMT prognoziga ko'ra, 2040-yilga borib demografik yuklama koeffitsienti (ishchi aholi/pensionerlar) 4:1 dan 2,5:1 gacha pasayishi kutilmoqda.

Har bir sohada bo'lgani kabi ushbu sohada ham qator muammolar mavjud. Masalan, yuqori inflyatsiya va real sarmoya rentabelligining past bo'lishi funded jamg'armalarning qiymatini pasaytirishi mumkin, mehnat bozorida struktura va norasmiy sektor miqdorining yuqoriligi, siyosiy va institutsional imkoniyatlardagi o'zgarishlar shular jumlasidandir. Xususan, 2017-yilda faqat 444 turdagi davlat xizmatlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 1 ming 40 taga yetdi. Bunda ko'rsatilgan xizmatlar soni qariyb 10 barobarga ko'payib, 55 milliondan oshdi. 90 dan ortiq xizmatlarni proaktiv va kompozit shaklda ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Masalan, tug'ilish bilan bog'liq xizmatlarning kompozit shaklda ko'rsatilishi har yili qariyb 1 million fuqaroga qulaylik yaratmoqda. Aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy nafaqalar, shuningdek, yoshga doir pensiya tayinlanishi aholi murojaatlarisiz avtomatik tarzda amalga oshirilmoqda.

Raqamlashtirish natijasida 30 turdagi xizmatlarni real vaqt rejimida olish imkoniyati yaratildi. Joriy yilning o'zida 8 millionga yaqin xizmatlar avtomatik ravishda ko'rsatildi. Hujjat almashinuvining elektron shaklga o'tkazilishi aholining yiliga 23 milliard so'm mablag'lari tejallishiga imkon bermoqda. Ushbu ko'rsatkichlar yurtboshimizning: "Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan insonparvar g'oyaga amal qilyapmiz", degan so'zlarining isboti desak, yanglishmagan bo'lamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda aholining qarishi, tug'ilish darajasining pasayishi va norasmiy mehnat bozori nisbatan yuqori bo'lishi pensiya budjetiga bosimni oshirmoqda. Shu sababli ko'p pog'onali (multi-pillar) pensiya tizimiga o'tish mamlakat uchun uzoq muddatli barqarorlikka erishish yo'lida muhim siyosiy qaror hisoblanadi. Ekonometrik modellarga ko'ra, 2- va 3-pog'onalarni joriy etish YAIm yukini kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni yaxshilaydi.

Aholining keksayganda pensiya olishini ta'minlash uchun majburiy jamg'arma fondlarini (NPF) rivojlantirish, jamg'arma fondlarini tartibga solish, investitsiya siyosatini diversifikatsiyalash, davlat kafolati mexanizmlari va minimal pensiya himoyasini ta'minlash, norasmiy iqtisodiyot bilan kurashish hamda qamrovni oshirish uchun mehnat bozorini formalizatsiya qilish, keng jamoatchilikka tushuntirish va moliyaviy ta'lim dasturlarini kuchaytirish, davlat kafolati va investitsiya diversifikatsiyasini kuchaytirish, aholi malakasini oshirish orqali qamrovni 70 % ga yetkazish zarur. Ushbu islohotlar 2030-yilgacha amalga oshirilsa, iqtisodiy foyda 2–3 % YAImga teng bo'ladi.

O'zbekistonda ko'p pog'onali pensiya tizimiga o'tish uzoq muddatda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi va davlat budjetiga bo'lgan bosimni kamaytirishi mumkin. Ekonometrik modellarning natijalari funded pog'onalar joriy etilganda pensiya xarajatlarining YAImga nisbati sezilarli darajada kamayishini va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichining yaxshilanishini ko'rsatadi. Strategik islohotlar agentligi tomonidan pensiya tizimini takomillashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bunda pensiya tizimini



keng ko'lamli isloh qilish, shu jumladan pensiya tayinlash shartlarini qayta ko'rib chiqish, pensiya yoshini umr davomiyligiga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, ish staji yoki pensiya olish uchun badallarni qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va aholi qamrovini oshirish kabi jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 2-iyundagi PF-91-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoni.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 28-noyabr kuni byurokratiyani bartaraf etishga bag'ishlangan xalqaro forumdagi nutqi.
3. Abdug'aniyev, A., & Jo'rayev, X. *Ijtimoiy ta'minot va pensiya tizimi iqtisodiyoti*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
4. Karimov, N., & Qodirov, D. *O'zbekistonda pensiya tizimini isloh qilishning dolzarb masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 2022, №4.
5. World Bank. (2022). *Pension Systems in Central Asia: Reforms and Sustainability*. Washington, DC.
6. IMF. (2023). *Uzbekistan: Selected Issues – Pension Reform*. IMF Country Report No. 23/145.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). *Pensiya tizimi islohotlari bo'yicha hisobot*.
8. Diamond, P. (2011). "Reforming Pensions: Principles and Policies for Multi-Pillar Systems". *Journal of Pension Economics and Finance*.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari (stat.uz).
10. Auerbach, A., & Kotlikoff, L. (2020). *Dynamic Fiscal Policy with Overlapping Generations: OLG Models in Pension Analysis*.
11. Holzmann, R., & Hinz, R. (2005). *Old-Age Income Support in the 21st Century: An International Perspective on Pension Systems and Reform*. World Bank.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100